

Insoniyat kun sayin o'sib borayotgan ehtiyojlari kundan kun ortib borish oqibatida, tabiatni muhofaza qilish uchun har bir shaxs ekalogik bilimlarga ega bo'lmog'i zarur, bu borada ko'p ta'kidlanib kelmoqda, chunki sayyoramiz kelajagi o'sib kelayotgan yosh avlodning nafaqat ularga, balki biz talabalarga ham berilayotdan, o'tilayotdan dars mashg'ulotlari bizning ekalogiyaga bo'lgan madaniyatni kundan kun oshirishi asrash kerak ekanligini bilmoqdamiz. Yoshlar o'rtasida ekalogik bilim, ong, madaniyat hamda ekalogik ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, ekalogiya sohasining ilg'or innovatsion texnologiyalarning jalb etgan holda yanada takomillashishini, onatabiatni sevish va uni ko'z qorag'ichiday asrashga qaratilgan bilim va ko'nikmalarning oshirishni davrni o'zi talab qilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan o'quv kurslari va o'quv modullari mazmuniga ekalogiya va atrof-muhit muhofazasi, bu boradagi mavjud muammolar, ularning yechimi, bu jarayonda har bir shaxsning, jumladan, talabalarning mas'uliyati, tabiatga, uning ne'matlariga oqilona munosabati, pirovard natijada insonning hayoti mobaynida ekalogik jihatdan qulay muhitda yashashini ta'minlash masalalarini yoritib beruvchi mavzular va ma'lumotlarni singdirish, o'qitish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, o'qitish uslublarini takomillashtirish, mustaqil ta'limga, shuningdek, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda ekalogiya va atrof-muhit muhofazasiga doir turli tadbirlar, davra suhbatlari, intellektual o'yinlar, tanlovlar, sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi ekomarofonlar, sport musobaqalari, tabiat qo'yniga sayr, sayohatlar tashkillash muhim ahamiyat kasb etadi. Ekalogik bilimlar odamlar o'zlarining hozirgi va kelgusidagi biosfera bilan qanchalik uzviy bog'langanini, tabiatni muhofaza etish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va har bir insonda atrof-muhit holati uchun mas'ullik hissini tarbiyalash, hayvonot va nabotot olamini asrash obyektiv zarurat ekanini tushunib yetishlarining muhim sharti hisoblanadi. Mazkur xayrli ishlarni amalga oshirishda keng jamoatchilikning o'rni ham beqiyos.

Kundan kunga yoshlar o'rtasida atrof muhitga bo'lgan mehrni uni asrashni yoshlikdan o'rgatib borishimiz kerak va bu kelajakda albatta o'z mevasini beradi hamda albatta bunga biz o'zimiz o'rnak bo'lishimiz kerak. Alloh mo'jizasi bo'lgan bu tabiatni biz insonlar kundan kun o'z ehtiyojlarimiz uchun izdan chiqarmaslik, aksincha uni asrashimiz kerak!

## **EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH**

*Ahunjonova Hakima Abdumannobovna*  
*[axunjonova1975@gmail.com](mailto:axunjonova1975@gmail.com)*  
*Central Asian Medical University*

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari oldida turgan muhim vazifalardan biri erkin va ijodiy fikrlovchi, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirishga qodir mutaxassisni tayyorlashdan iborat. Mamlakatda ekalogik xavfsizlikni ta'minlash, ekalogik vaziyatni yaxshilash, qulay ekalogik holatni barqaror saqlash, ekalogiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlash hamda sohada sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ustuvor vazifalari belgilab qo'yilgan. Mazkur vazifalarning samarali hal etilishi o'z navbatida innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish va ta'lim-tarbiya jarayonida yangi zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va amalda joriy qilish orqali mavjud dolzarb muammo va kamchiliklarni bartaraf etishni taqozo etadi. Shuningdek, zamonaviy talablar ta'lim jarayonini yaxlit tizimi sifatida modernizatsiyalash hamda ta'limda innovatsion faoliyatni tashkil etish zaruriyatini ko'rsatmoqda. Shu bilan birgalikda ta'limni rivojlantirishning asosiy tendentsiyalaridan biri bu axborotlashtirish va komp'yuterlashtirish bo'lib, o'quv jarayoniga yangi innovatsion, axborot texnologiyalarini joriy etishni, auditoriyadagi darslarni interfaol usullarda o'tilishini ta'minlashdan iboratdir. Ta'lim jarayonida interfaol usullarni qo'llash ularni integratsiyalash, uning metodik asoslarini o'rganish, shakl va metodlarini tanlash va ishlab chiqish, davlat ta'lim standarti va uzluksiz ta'lim tizimi bilan bog'liq dolzarb masalalardan biridir. Bugungi yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimining integratsiyasi bozor iqtisodiyoti

o'zgarishlariga va talablariga mos kelishi, o'quv jarayonining moddiy-texnik va axborot bazasi bilan yetarlicha ta'minlanishi, ta'lim jarayoniga yuqori malakali pedagogik kadrlarni jalb qilish, sifatli o'quv-metodik ishlanmalarni tayyorlash, ta'lim tizimi va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro integratsiyani yo'lga qo'yish muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Olimlarimiz tomonidan XI - asr axborot texnologiyalar asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanayotgani, jumladan, ta'lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanishda noan'anaviy o'qitishni yuqori natijalarga olib kelmoqda. Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalarida AQShda paydo bo'lib, 1940-50 yillar o'rtasigacha «Ta'lim texnologiyasi» deb yuritilib kelgan va bu ibora texnika vositalaridan foydalanib o'qitishga nisbatan qo'llanilgan. 1950-60 yillarda programmalashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan, 1970-yillarda «pedagogik texnologiya» iborasi qo'llanilib u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini bildirgan. 1979 yilda Ekologik tanglik va halokatlarning oldini olishda, jamiyat va tabiat o'rtasidagi ekologik ziddiyatlarni hal etishda qurilish ekologiyasi fani qoidalarini amaliyotda qo'llash katta ahamiyatga ega. Hozirgi davrda ekologiya fani oldida turgan amaliy vazifalar quyidagilardan iborat: 1) Aholini optimal ekologik muhit bilan ta'minlash; 2) Ekologik xavfsiz binolar qurilishini ta'minlash; 3) Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish bilan bir qatorda chiqindisiz texnologiyalarni ishlab chiqarish; 4) Sun'iy ekotizimlarning (qishloq xo'jaligi) doimiy va yuqori hosildorligini ta'minlash; 5) Aholining turli tabaqalariga ekologik ta'lim va tarbiya berish yo'li bilan tabiat muhofazasini amalga oshirish.

Tabiat-bitmas-tuganmas xazinadir. O'simliklar dunyosi hayvonat olami yosh qalbning to'g'ri o'sib shakllanishida, tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarning sir –asrorini o'rganib voyaga yetishida katta manba bo'lib xizmat qiladi. Tabiat bilan tanishtirish orqali barcha tarbiya turlari amalga oshiriladi. Har bir darslarini tashkil etishda ilg'or usullardan foydalanish umumiy ma'noda har bir o'quv mashg'ulotida mavzudan kelib chiqqan holda turli xil qo'llanadi. Ekologiya fanini o'tishda yangi ta'lim texnologiyalari o'qituvchiga qo'yidagilarda yordam beradi: 1. Talabaga yo'naltirilganligi; 2. Talabaning zamonaviy ta'limda o'qishga tayyorligining turli darajalarini hisobga olgan holda rivojlanayotgan ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirishi kerakligi; 3. Talaba shaxsini shakllantirish va rivojlantirish yangi ma'lumotlarni "kashf etishga" yoki «Ixtirochilikka» qaratilgan o'z faoliyati jarayonida amalga oshirilish. Ekologiya fanida talabalarni o'qitishni samarali tashkil etish, pedagogik texnologiyalarning mazmuni, shakl va vositalari, ta'lim berishda pedagogik texnologiyalardan to'g'ri tanlash va unumli foydalanish uslublari, kafolatlangan natijaga erishish uchun olib borilayotgan ta'lim sohasidagi yangiliklarni o'rganish, amaliyotda foydalanish ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Ta'lim jarayoni murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va talabaning faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'qituvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovasion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.